

“Insert” metodi

Insert metodi tushunishni kuzatish vositasidir. Insert - bu o‘quv jarayonida o‘z anglashini faol kuzatish uchun o‘quvchilarga imkoniyat beradigan kuchli vositadir, chunki shunday hollar borki, odam matnni oxirigacha o‘qib, u yerda nima yozilganligini eslab qololmasligi mumkin.



Bu esa odam nima o‘qiyotganini tushunmay, o‘qish jarayonida faol bo‘lishga qatnashmaydigan va o‘z anglashini kuzatmaydigan hollarning misolidir. Insert - bu matn bilan ishlaganda faollikni qo‘llab - quvvatlash uchun kuchli vositadir.

O‘quvchi matn bilan ishlayotganda bir qator belgilarni qo‘yib boradi, ular esa quyidagi ma’nolarni bildiradi:

- V - bilganlarimni tasdiqlaydi.
- + - yangi axborot.
- - bilganlarimga zid keladi.
- ? - meni o‘ylantirib qo‘ydi.



Afzalligi:

- ✓ mustaqil o‘qish vaqtida olgan ma’lumotlarni, eshitgan ma’ruzalarni tizimlashtirishni ta’minlaydi; olingan ma’lumotni tasdiqlash, aniqlash, chetga chiqish, kuzatish.
- ✓ avval o‘zlashtirgan ma’lumotlarni bog‘lash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.



Matnni insert metodida o‘rganganda quyidagi jadvaldan foydalanish mumkin.

«V»	« + »	« - »	« ? »
«ha» - o‘qiganlaringizdan aniq bilgan yoki bilaman deb o‘ylagan ma’lumot	«musbat» - o‘qiganlaringiz orasida siz uchun yangi bo‘lgan ma’lumot	«manfiy» - o‘qiganlaringiz, bilganlaringizga qarama-qarashi ma’lumot	«savol» - o‘qiganlaringizdan siz uchun tushunarli bo‘lmagan yoki shu haqda ko‘proq narsa bilishni istagan ma’lumot